

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 28 - noyabr

424-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumani “Qilichboy” OFY
hududidan doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, “Yer to'g'risida”gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi va “Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida”gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida”gi 543-son qaroriga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yil 22-noyabrdagi 01/656-sonli buyurtma xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Amudaryo tumani hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlardan “Qilichboy” OFY hududidan 7-sonli oilaviy poliklinikasining amalda foydalanilib kelayotgan 2,1043 gektar yer maydoni ilovaga muvofiq Amudaryo tumani tibbiyot birlashmasiga doimiy foydalanish huquqi asosida o'rnatilgan tartibda ajratib berilsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi (M.Qurbanov) belgilangan tartibda:

ajratilgan yer maydonlariga qurilish loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish;

ajratilgan yer maydonlarida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;

ajratilgan yer uchastkalarida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin boshlash choralari ko'rsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunboyev) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga o‘rnatilgan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.


**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F.Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 28-noyabrdagi
424-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Amudaryo tumani Qilichboy OFY hududida joylashgan 7-sonli oilaviy
poliklinikasi uchun tanlangan yer uchastkasining
TARXI
M:2000**



Yer uchastkasi haqida qisqacha ma'lumotlar
Shimol tarafi Baxt 2-ko'cha yo'li, Sharq tarafi Baxt ko'cha yo'li,
Janub tarafi Ochiq yer maydon, G'arb tarafi Baxt 3-ko'cha yo'li
Koordinatasi: 1.N 41°58'49.36" E 60° 1'53.49"
2.N 41°58'52.22" E 60° 1'55.76"
3.N 41°58'54.11" E 60° 1'51.49"
4.N 41°58'51.42" E 60° 1'49.45"
Yer uchastkasi maydoni (ga): 2,1043
Yer fondi: Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar
Ball boniteti: Baxolanmagan
Foydalanish maqsadi: Amudaryo tumani Qilichboy MFY hududida joylashgan 7-sonli
oilaviy poliklinikasi uchun